

RIVOJLANISHDA MUJASSAM NUQSONLARNING TARQALGANLIGI
HAQIDA.

Mamirov Muhammad

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti Defektologiya
[logopediya] yoʻnalishi 511-21-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rivojlanishida mujassam nuqsonlar va ularning tarqalganligi sabablari ilmiy jihatdan yoritilib berilgan.*

Kalit soʻzlar: *Mujassam nuqson, ikkilamchi nuqson, maxsus pedagogika, kar-koʻr-soqov bolalar, aqli zaiflik, koʻp nuqsonlilik.*

Abstract: *This article provides a scientific explanation of congenital malformations and the reasons for their prevalence*

Key words: *Congenital defects, secondary defects, special education, deaf-blind children, intellectual disability, multiple disabilities.*

Аннотация: *В данной статье научно освещены врожденные дефекты развития и причины их распространенности.*

Ключевые слова: *Множественные дефекты, вторичные дефекты, специальная педагогика, глухонемые и слепые дети, умственная отсталость, множественные нарушения.*

Mamlakatimiz aholisining aksariyatini 14 yoshgacha boʻlgan yoshlar tashkil qiladi. Shular ichidagi nogiron va alohida yordamga muhtoj bolalarning hammasi hisobda. Nogiron, kasalmand bolalar uchun maxsus maktab internatlar tashkil qilingan. Yosh avlodni har tomonlama sogʻlom kamol toptirish ishi davlatimiz gʻamxoʻrligi va nazoratida bolib kelayotir. «Sogʻlom avlod uchun» dasturini amalga oshirish barchamizni eʼtiqod va qatʼiyat bilan faoliyat koʻrsatishga undaydi.

Zamonaviy maxsus pedagogikada mujassam nuqsonga ega boʻlgan bolalarga nisbatan eʼtiborning ortganligi, yuqorida aytib oʻtganimizdek, ularning soni ortib borayotganligini, shuningdek, ularga ixtisoslashtirilgan yordam koʻrsatish uchun ishlanmalarning yoʻqligidan dalolat beradi. Turli xil nuqsonlarga ega boʻlgan bolalar deyarli barcha maxsus muassasalarda uchraydi.

Murakkab nuqson muammosi yetarlicha qiyin. “Murakkab nuqson” yoki hozir qabul qilinganidek, “rivojlanishdagi murakkab nuqsonlar” tushunchasi, turli adabiyot manbalarida turlicha qayd etiladi. Atamalarda noaniqlik birlamchi nuqson oqibatida, aniq birlamchi nuqson taʼsirida, ikkilamchi nuqsonni paydo boʻlishida yoki ahamiyatsiz nuqsonlar tizimning asosiy elementlari sifatida baholanganda paydo boʻladi, shu bilan bir vaqtda, ularga asoratlar sifatida qarash lozim. Bizning nuqtai nazarimizga koʻra, “murakkab tizimli nuqsonga ega bolalar” va “murakkab nuqsonli bolalar” tushunchalarini bir xil deb hisoblash toʻgʻri emas.

V.I.Lubovskiy (1989), rivojlanishning buzilishi bir vaqtning oʻzida bir nechta analizatorlarning jarohatlanishida (eshituv va koʻruv) yoki yetakchi analizatorlardan biridagi

nuqsonga bosh miya qobig'ining diffuz jarohatlanishi qo'shilib kelganda muhimni ahamiyatga ega (masalan, karlik yoki ko'rlikka aqli zaiflik birga qo'shilib kelsa) ekanligini ko'rsatadi. Bir nechta jarohatlar oqibatida kelib chiqadigan buzilishlar – murakkab nuqsonlar, deyiladi.

Maxsus adabiyotlarda murakkab nuqson atamasi orqali faqat birlamchi nuqsonlar, maslan, ko'r-karlik anglatiladi. Agar atamada rivojlanishdagi ikkilamchi nuqsonlar keltirilsa, masalan, “ko'r-kar soqovlik”, so'zi keltirilsa, bundagi “soqovlik” atamasi nutqning yo'qligini bildirib, bu bolaning karligi asoratigina hisoblanadi, bunday atamani noaniq va eskirgan ,deb qabul qilish kerak.

Mashhur olimlarning xulosalari murakkab (kompleks) nuqsonlarni shakllanishi mazmuni va tushunchasini nazariy tomondan qabul qilish imkonini beradi. Murakkab nuqson tushunchasining sinonimi sifatida uch va undan ortiq (birlamchi) nuqsonlar kuzatilganda, ularning hur biri bola rivojlanishidagi buzilishlarini chuqurlashtiradigan, salbiy oqibatlarga sabab bo'lganda, masalan ko'r-kar aqli zaiflikda “ ko'p nuqsonlilik” atamasi qo'llaniladi.

Zamonaviy davrda maxsus psixologiyani rivojlantirish: kompensatsiyasining optimal shart-sharoitlarini izlash, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlarini topish, hayot tarzini rivojlantirish imkonini beradi. Nuqson atamasining fanda qo'llanila boshlanishi Markaziy asab tizimi falajlangan bolalar psixologiyasi. Mujassam nuqsonli anomal bolalarda bir necha nuqson birgalikda kuzatiladi., Ular kompleksli nuqsonli bolalar kategoriyasi deb ham nomlanadi. Onalar va bolalar salomatligini yaxshilash, nogironlikni oldini olish, ekologik muvozanatni yanada barqarorlashtirish yuzasidan mamlakatimizda mustaqilligimizning birinchi kunidanoq muayyan amaliy ishlar olib borilmoqda.

Respublikada kasal bolalar tug'ilishi ko'rsatkichi 1000 aholiga nisbatan 1991 yildagi 34, 5 dan 2000 yildag 21, 4 ga kamaydi. Demak hali ham bu borada ko'pgina ishlar olib borilishi lozim. Ayollar, ayniqsa, qizlar orasida uchraydigan chekish, spirtli ichimliklar ichish, narkotik moddalar is'temol qilish, shifokor maslahatisiz dori-darmon qabul qilinishi, ekologik muammolar va boshqa holatlar nogiron bolalar tug'ilishiga sabab bo'layotgani va uning oldini olish borasida ko'proq balog'at yoshidagi yigit-qizlar orasida tushuntirish ishlari keng tarzda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Olimlar tomonidan aniqlangan 400 dan ortiq dori-darmonlar homila rivojlanishiga (dastlabki 1-2 oylar) salbiy ta'sir etarekan.

Mujassam nuqsonli maxsus yordamga muhtoj toifasiga kar-ko'r-soqov bolalar, kar va aqlan zaif, ko'r va oligofren, harakat tayanch a'zolari jarohatlangan va ko'r yoki aqlan zaif va h.k. kiradilar. Oxirgi yillarda ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar soni ancha kamaydi. Oftalmologik yutuqlar, erta diagnostikaning yangi usullarini ko'llanishi, ko'rish organlari kasalliklarini davolash va korreksiya qilish natijasida maxsus maktab o'quvchilarining kontingenti sezilarli darajada o'zgardi. Ko'r bolalar nisbatan kamaydi, ammo zaif ko'ruvchi bolalar soni ko'paydi. Ularning orasida maktab dasturini o'zlashtira olmaydigan bolalar yaqqol ko'rina boshlandi. Kompleks, ya'ni har tomonlama tekshirish, o'rganish natijasida ularning ko'rish qobiliyatini buzilishi bilan birga oligofreniya tipidagi aqli zaiflik ham mavjudligi aniqlandi.

Zaif ko'ruvchi va aqli zaif bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash ancha murakkab va o'ziga xosdir. Odatda zaif ko'ruvchilardan ayrimlari va ko'r bolalar «Brayl» sistemasi bo'yicha o'qish va yozishni o'rganadilar. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim natijasida ko'r bolalar nuqta-

relyefli shriftni tez o'rganib oladilar. Aqli zaif ko'rlarda bu jarayon ancha sekin kechadi, uncha samarali bo'lmaydi. Bunga bir necha sabablar mavjud. Markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi natijasida aqli zaif ko'r bolaning kompensator imkoniyatlari sustlashgan bo'ladi. Maxsus tashkil etilgan ishlar tufayligina eshitish analizatorlari kompensator faoliyatni bajara boshlaydilar.

Aqli zaif o'quvchilarning tafakkur, tasavvur, nutqi, fikrlash qobiliyatini o'stirishda yordamchi maktabda ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi. Ko'rlar maktabida bu borada ko'proq nutq, so'zga, maxsus tiflografik ko'rgazmali kurollarga asoslangan holda ish tashkil etilsa, aqli zaif ko'r bolalar bilan boshqacha ishlarni uyushtirish lozim bo'ladi. Ikkala holatda ham birinchi navbatda bolaning abstrakt tafakkuri yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Aqli zaif bolalarning esa bilish faoliyati turg'un buzilgan bo'ladi. Aqlan va ko'rish qobiliyati zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasiga maxsus yondoshgan holda, maxsus yaratilgan tizim asosida o'qitish va tarbiyalash lozim.

Mujassam nuqsonli bolalardan eshitish qobiliyati va aqli zaif bolalar birinchi bo'lib o'rganilgan edi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda ikkilamchi hodisa sifatida aqlan zaiflik kuzatilib boriladi. Natijada intellekti sog'lom, eshitish qobiliyati zaif bolalarni aqli zaif eshitish qobiliyati zaif bolalardan amalda ajratish ancha mushkul. Ayniqsa ilk yoshdagi bolalarda. Hozirgi kunda ular uchun differensial-dagnostik mezonlar ishlab chiqilgan. Aqli va eshitish qobiliyati zaif bolalar karlar yoki zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlarining yordamchi sinflarida yordamchi maktab dasturi bo'yicha ta'lim oladilar. Yordamchi sinflar ko'rlar va zaif ko'ruvchi bolalar maktab-internatlarda ham mavjud.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki hozirgi kunda nuqsonli tug'ulishning oldini olish va rivojlanishida mujassam nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatish rivojlanish bosqichida.

Ammo u, maxsus korreksion muassasalarda, turli dasturlar, turli ta'lim boshqaruv organlari boshchiligida va metodik, meyoriy materiallarga tayanib amalga oshirilmoqda.

Bunday bolalarning rivojlanishini har tomonlama o'rganish bolalarni turli toifalarga, bolalarni alohida guruhlar va sinflarga ajratish tamoyillarini, shuningdek, korreksion - pedagogik ishlarning ancha mahsuldor yo'llarini aniqlaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yangi ta'lim to'g'risidagi qonun .2020y
2. Ayupova M.Yu. Logopediya. O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007 y.
3. Ermakov V.P, Yakunin G.A. Osnovoi tiflopedagogiki Moskva:Vlados 2000g.
4. Ignateva S.A. Blinkov Yu.A. Logopedicheskaya reabilitatsiya detey s otkloneniyami v razviti. Moskva: «Vlados». 2004 g.
5. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika (oligofrenopedagogika). T.: G'ulom", 2005 y.
6. Raxmonova V.S. Maxsuspedagogika. G'ulom nashriyoti. Toshkent. 2006